

***Mirzoyeva Istat Elmurodovna***

Buxoro davlat universiteti, "Ekologiya va geografiya"  
kafedrası g.f.f.d (PhD), katta o'qituvchisi

***Savriddinova Muxlisa Ikrom qizi***

Buxoro davlat universiteti, Geografiya ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich magistranti

## **TO'DAKUL SUV OMBORINING DAM OLISH IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH HOLATI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, To'dako'l suv omborining dam olish imkoniyatlari, suv havzasi atrofidagi hududlarning mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish masalari batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** plyaj, basseyn, adir, tog', yaylov, shag'illi allyuvial, rekreatsion landshaftlar, turistik-rekreatsion zona, suv ombori.

***Mirzoyeva Istat Elmurodovna***

Bukhara State University

PhD (Geography), Senior Lecturer

Department of Ecology and Geography

***Savriddinova Mukhlisa Ikrom qizi***

Bukhara State University

Master's student 2<sup>nd</sup> year, Geography Education Program

## **STATE OF EFFECTIVE USE OF RECREATION OPPORTUNITIES OF THE TUDAKUL RESERVOIR**

**Abstract:** This article details the recreational opportunities of the Tudakul reservoir and the effective use of the existing tourism potential of the surrounding areas.

**Keywords:** beach, pool, hill, mountain, pasture, gravel alluvial, recreational landscapes, tourist-recreational zone, reservoir.

Turizmda “rekreastiya” atamasi dastlab XIV asrlarda, ingliz tilidagi adabiyotlarda ilk bor qo‘llanilgan bo‘lib, “refreshment or curing of a sick person”, ya’ni “tetiklashtirish” yoki “kasal odamlarni tuzalishi” degan ma’nolarda ishlatilgan. Vaqt o‘tishi bilan ushbu atama shakllanib borgan, XIX asrning 90-yillariga kelib, AQSHda rekreatsiya belgilangan ish kunlari davomida ajratiladigan dam olish kunlari va ta’tillarni tashkillashtirish ma’nosida ilmiy adabiyotlarda qo‘llanila boshlangan va inson kundalik hayoti davomida yo‘qotgan salomatligini qayta tiklash, sog‘lomlashtirish ma’nolarini bildirgan.

Rekreatsioon turizmni tashkil qilishda boshqa turizm turlari singari mintaqaning turistik salohiyatidan kelib chiqqan holda jarayon tashkil qilinsa, albatta, samara beradi. Rekreatsioon salohiyat – bu o‘zaro funksional bog‘liqligi va hududiy yaxlitligi bilan ajralib turadigan, turdosh tarmoqlar, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati, yo‘lovchi transporti va kommunikatsiyalar, savdo va umumiy ovqatlanish sohalari bilan ta’minlangan tabiiy, sport-turizm, sog‘lomlashtiruvchi va ijtimoiy-madaniy quyi birliklarning yagona tizimidir.[2]

Bugungi kunda dam olish resurslariga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. Turmush farovonligi aholi madaniyatining yuksakligi demografik o‘sinh kabi omillar dam olishga bo‘lgan talabni kuchaytirib boradi. Ma’lumki, respublikamiz hududining aksariyat qismi jumladan, aholiga gavjum bo‘lgan yirik vohalar ham cho‘l zonasida joylashgan. Lekin bu hududning tabiiy dam olish resurslari adir, tog‘, yaylov mintaqalariga nisbatan birmuncha cheklangan. Ayniqsa, yilning iliq davrida ya’ni dam olish resurslariga bo‘lgan talab kuchaygan pallada cho‘l zonasini dam olish imkoniyatlari yanada tabiiy cheklanadi. Ko‘zni qamashtiradigan o‘ta yorug‘ kunlar jazirama issiq chang-

to‘zonli quruq havo, suv resurslarini cheklanganligi kabi omillar ushbu hududda rekreatsion noqulayliklar tug‘diradi.

Shularga qaramasdan cho‘l zonasi o‘ziga xos va mos bo‘lgan qator rekreatsion imkoniyatlarga ega. To‘dako‘l hududining hozirgi landshaftlari uzoq davr va turli geografik sharoitlarni kechirgan. Bu merosiy xususiyatlar o‘z navbatida hozirgi landshaftlarning negizi barqarorligi, biomahsuldorligi, ekologik sifatlariga, xullas ularning iqtisodiy - ijtimoiy salohiyatini belgilab turadigan muhim omillardan hisoblanadi. Shu ma’noda K.K.Markov (1986) “Geografiya uchun yer yuzasining o‘tmishi, uning hozirgi manzarasini bilish uchun kalitdir”, - deb qayd qilgan edi. Hozirgi landshaftlar o‘tmish landshaftlarining vorisidir. Har bir hudud o‘ziga xos tabiiy xususiyatga ega. Inson o‘z hayoti davomida tabiatdan foydalanishda mazkur hududning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ya’ni tabiat bilan uyg‘un yashashga, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladi. Bu borada makon va zamon tomoyiliga amal qilinsa, dam olish imkoniyatidan foydalanish samarali bo‘ladi. Cho‘l landshaftlari boshqa zonal landshaft tiplariga qaraganda o‘ziga xos rekreatsion imkoniyatlarga ega. Rekreatsiya atamasi lotincha rekreatsion – tiklash, ya’ni mehnat qilish davomida sarflangan jismoniy, ruhiy kuchlarni tiklash, mustahkamlash ma’nosiga ega[4].

Rekreatsiya tarixiy kategoriya, insonning turmush sharoiti, dunyoqarashi rekreatsiyaga nisbatan o‘zgarib, takomillashib boradi. Iqtisodiy farovonlik va u bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy yetuklik rekreatsiyaga bo‘lgan ehtiyojni belgilab turadi. Ijtimoiy hayot darajasi yuksalib borgan sari dam olishga, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishga bo‘lgan ishtiyoq ortib boradi.

Rekreatsion landshaftlar ya’ni keng ommani hamda yo‘lanma bilan kelgan dam oluvchilar uchun ajratilgan va shart sharoitlar yaratilgan.

- Birinchidan, yoz paytlarida shimoli - sharq tomondan yoqimli shabada esib turadi.

- Ikkinchidan, juda sayoz qumli shag‘alli sohil cho‘milish va dam olish uchun qulay Bundan tashqari tabiat manzaralarini tomosha qilish imkoniyatlari yuqori.

Dam olish maqsadlari uchun ushbu makonda birinchi bo‘lib Navoiy tog‘ metalurgiya kombinatiga qarashli "Zarnitsa " dam olishsi tashkil qilingan. Dam olish aksariyat yilning issiq davrida faoliyat ko‘rsatadi. Dam olish zonasi atrofida 2 gektarga yaqin mevali bog‘, uzumzorlar hamda, 200 m kenglikda cho‘milish zonasi tashkil qilingan. Dam olish hududida janub tomondan yondosh bo‘lib, Buxoro dam olish zonasi joylashgan. Ikki – uch km sohil bo‘ylab cho‘zilgan bu zonada Buxoro viloyati tashkilotlari tomonidan bunyod etilgan binolar, yashil yo‘laklar, sohil bo‘yi cho‘milish maydonchalari yaratilgan. Bular orasida aholi uchun yaratilgan rekreatsion zona o‘ziga xos. Sohil oldida mevali daraxtlardan iborat bog‘, uning g‘arbiy tomonida esa qattiq qoplamli yo‘laklar, kerakli infratuzilmalar barpo qilingan.

Suv havzasi atrofidagi hududlarning mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro umum mavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi ob’ektlarini barpo etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, hududni ekologik barqarorligini ta‘minlash, shuningdek, mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida Qiziltepa tumani hokimligi zaxira fondida bo‘lgan 90 ga yer maydonida “To‘dako‘l” turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish rejalashtirilgan.

“To‘dako‘l” turistik-rekreatsion zonasini sifatida tashkil etilgandan keyin 90 ga yer maydonida bir vaqtning o‘zida 7000 nafar sayyohlarga xizmat ko‘rsatish imkoniga ega bo‘lgan, umumiy qiymati 390,0 mlrd.so‘m bo‘lgan mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etiladi.

To‘dako‘l sohil bo‘yi hududida “Silk Road Family Resort” plyaj, dam olish va sog‘lomlashtirish maskani tashkil etildi. Ushbu sayyohlik obyektida plyaj, basseyn, kichik “Disneylend”, 50 o‘ringa mo‘ljallangan mehmonxona, dam olish so‘rilari, kema timsolidagi restoran, SPA-salon, tabiat qo‘ynidagi o‘yingoh, tibbiyot burchagi, sport o‘yingohi, va maxsus suv transportlari kabi qo‘shimcha xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan[3].

Quyimozor suv ombori esa aksariyat ichimlik suvi manbai sifatida foydalaniladi va muhofaza qilinadi. Suv ombori sohillari himoya zona sifatida qo‘riqlanadi. Shu bois bu yerda dam olish zonolari yo‘q hisobida. Faqat erkin dam oluvchilarni uchratish mumkin. Suv omborining shimoliy sohilida Kogon - Toshkent temir yo‘liga yondosh yerda "temir yo‘lchilarning dam olish zonasi" barpo etilgan. Zona taxminan 1 gektar maydonni egallaydi, beton devorlar bilan o‘ralgan. Sohil bo‘yi zinapoyasimon ko‘tarilib turadi va Quyimozorni tomosha qilib turadigan sahnaga o‘xshaydi. Sohil shag‘illi allyuvial negizga ega. Uzoqdan suv omborining tik - chinksimon yerli relyef ajoyibotlarini kuzatish mumkin. Salqin shabada doim sizni kuzatib turadi. Dam olish xonalari, to‘rt tomoni ochiq supali ayvon dam olish imkoniyatlarini oshiradi. Sohil relefiga uyg‘un bo‘lgan zinapoyalar dam oluvchini ruhini ko‘taradi. Qayd qilish joizki, bulardan tashqari Quyimozor, Qiziltepa nasos stansiyalari oldida mevali bog‘lar, orom bag‘ishlovchi infratuzilmalar barpo qilingan.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, dam olish zonasida transport infratuzilmasining noqulayligi, yo‘llarning talab darajasida emasligi kabi salbiy jihatlar mavjud bo‘lganligi uchun suv ombor atrofida qulay rekreatsion sharoit, sho‘rga chidamli daraxt turlarini ko‘paytirish, ko‘kalamzorlashtirish lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati***

1.Авакян А.Б., Салтанкин В.П., Шарапов В.А. Водохранилища. М.:“Мысл” 1987.

2.Авакян А.Б. Рекреационное использование водохранилищ: проблемы и решения Текст.Л А.Б. Авакян, В.К. Бойченко, И.В. Ланцова, В.П. Салтанкин, В.Б. Яковлева. М.: Наука, 1990. –152 с.

3.Mirzoyeva I.E. To‘dako‘l suv omborining rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari //Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2023. –В. 276-280.

4.Назаров И.К.Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. – Ташкент, 1992. – 101. с.

5. Hikmatov F.H. O‘rta Osiyo suv ilmi tarixiga oid ma’lumotlar. –Т. “Universitet”, 2006. – В. 6-7